

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/07.06.2024.Ped.27.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

RADJABOVA GULNOZA GIYOSIDDINOVNA

KORPUS TEXNOLOGIYALARI (COCA) TALABALARNING YOZUV
KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA AUTENTIK
MATERIALLAR MANBAYI SIFATIDA
(ingliz tili misolida)

13.00.02 – Talim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

UO‘K:
378.091.33:811.111’322

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии
(PhD) по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)
on Pedagogical sciences**

Radjabova Gulnoza Giyosiddinovna

Korpus texnologiyalari (COCA) talabalarning yozuv kompetensiyasini
takomillashtirishda autentik materiallar manbayi sifatida
(ingliz tili misolida) 3

Раджабова Гулноза Гиесиддиновна

Корпусные технологии (СОСА) как источник аутентичных материалов
для совершенствования письменной компетенции студентов
(на примере английского языка) 25

Radjabova Gulnoza Gioysiddinovna

Corpus Technologies (COCA) as a Source of Authentic Materials for
Developing Students' Writing Competence
(on the example of English) 49

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works 53

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/07.06.2024.Ped.27.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

RADJABOVA GULNOZA GIYOSIDDINOVNA

**KORPUS TEXNOLOGIYALARI (COCA) TALABALARNING YOZUV
KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA AUTENTIK
MATERIALLAR MANBAYI SIFATIDA
(ingliz tili misolida)**

13.00.02 – Talim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Ped3616 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.uzswlu.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta‘lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Muradkasimova Kamola Shuxratovna pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Rasmiy opponentlar :	Isroilova Dildora Muxtorovna pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
	Samatova Barnoxon Ravshanxonovna pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yetakchi tashkilot:	Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi PhD.03/07.06.2024.Ped.27.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil “_____” _____ kuni soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo‘li ko‘chasi, 21a. Tel.: (99871) 230-12-91; faks: (99871) 230-12-92; e-mail: uzswlu_info@mail.ru).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____-raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik xalqa yo‘li ko‘chasi, 21a. Tel.: (99871) 230-12-91; faks: (99871) 230-12- 92; e-mail: uzswlu_info@mail.ru).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “___” _____ kuni tarqatildi.

(2024-yil «_____» _____ da _____ - raqamli reyestr bayonnomasi).

L.T. Axmedova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, ped.f.d., professor

A.B. Raxmonov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, ped.f.d. (DSc), dotsent

A.A. Nasirov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar rais o‘rinbosari, fil.f.d. professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda hozirgi globallashuv jarayoni talabi bilan chet tilida yozma nutqni rivojlantirish uchun yangi texnologiyalarni tatbiq etish yanada dolzarblashmoqda. Kompyuterdan foydalanish darajasi oshgan sari texnologiya chet tillarni o'rgatish sohasida ham muhim manbaga aylanmoqda. Natijada yozuv ko'nikmasini shakllantirish bo'yicha kompyuterga yo'naltirilgan o'qitish jarayonini optimallashtirish ta'lim muassasalarida innovatsion faoliyatni tashkil qilishda qulayliklarni yuzaga keltirdi. Avvalgi tadqiqotlarning aksariyati kompyuter texnologiyalaridan foydalanishda o'quvchi va o'qituvchi yoki tengdoshlar o'rtasidagi o'zaro muloqot vositasi masalasiga bag'ishlangan. Ularda texnologiya lingvistik resurs emas, balki vosita sifatida tushunilganligini ta'kidlash joiz. Shu bois savodxonlikni oshirish, yozma nutqni rivojlantirish borasida texnologiyalarning o'rni masalasida zamon talabiga javob beradigan yangi tadqiqotlar yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo hamjamiyatida yetakchi o'rinlarda turuvchi Birmingem universiteti (the University of Birmingham), Kolumbiya universiteti (Columbia University), Kvinslend universiteti (the University of Queensland) kabi qator oliy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlari tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlarda korpuslar alohida ahamiyat kasb etgani bois korpus texnologiyalari yozuvga o'rgatish bo'yicha tadqiqotlarda foydalanilgan boshqa turdagi texnologiyalardan jiddiy farqlanadi. O'rganuvchilarga umumiy qabul qilingan leksik va grammatik ko'nikmalarni egallash bilan birga yozma nutqni yaxshilashga yordam beruvchi mukammal lingvistik axborotni taqdim etish buning sababidir. Shunga ko'ra bugungi kunda til o'rganish yuzasidan korpus texnologiyalarini ishlab chiqish masalasi jahon tilshunoslarining diqqat markazida turganligi mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

O'zbekistonda ta'lim tizimini rivojlantirishga davlat siyosati darajasida alohida e'tibor berilmoqda. Xususan, bo'lajak mutaxassislar tomonidan jahon standartlariga mos muhitda jismonan va ma'nan yetuk kadrlarni yetishtirish, ularning qobiliyati, iste'dodi, intellektual salohiyatini rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Zero, "Tarbiya va o'qitish usullari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda xorijiy tillarni puxta o'zlashtirgan, ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalariga ega professional pedagog kadrlar tayyorlash"¹ – oliy ta'lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, 2020-yil 27-fevraldagi "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4623-son, 2020-yil 6-noyabrdagi "Ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-son, 2021-yil 1-apreldagi "Ilm-fan sohasidagi davlat siyosati va innovatsion rivojlantirishdagi davlat boshqaruvini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5047-son, 2021-yil

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4623-son qarori. – Elektron resurs: <https://lex.uz/docs/-4749364> (Murojaat sanasi 2021-yil 20-sentyabr).

19-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5117-son, 2021-yil 9-iyundagi “Kasblar bo‘yicha kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5140-son, 2021-yil 30-iyuldagi “Oliy, o‘rta maxsus va professional ta‘lim tashkilotlarida ta‘lim olish imkoniyatlarini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”igi PQ-5203-son, 2021-yil 31-avgustdagi “Oliy, o‘rta maxsus va professional ta‘lim muassasalari o‘rtasida ta‘lim jarayoni hamda tarmoq tashkilotlari bilan ishlab chiqarish amaliyoti uzviyligini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5141-son, 2022-yil 3-oktyabrdagi “Oliy ta‘lim tashkilotlarida masofaviy ta‘lim shaklini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 559-son, 2023-yil-3-iyuldagi “Ma‘muriy islohotlar doirasida oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-200-son qarorlari hamda faoliyatning mazkur sohasiga taalluqli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan ta‘lim sifatini oshirishni ta‘minlash bo‘yicha vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ilmiy natijalari ma‘lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining: I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy va ma‘naviy rivojlantirish bo‘yicha innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va rivojlantirish usullari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ingliz tilini chet til sifatida, o‘rgatish muammosining tadqiqi bo‘yicha T.K. Sattarov, J.J. Jalolov, G.T. Maxkamova, Sh.S. Ashurov, L.T. Axmedova, F.M. Rashidova, K.Sh. Muradkasimova, M.X. Gulyamova² kabi mahalliy olimlar hamda E.N. Solovova, I.A. Zimnyaya, V.M. Filatov, E.I. Passov, N.P. Shatalova, H. Jeremy, A. Hughes, Nunan, J.S. Richards,

T.S. Rodgers³ va boshqa taniqli xorijiy olimlar izlanishlar olib borishgan. Talabalarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish masalalari bilan S. Kazakbayeva, D. Olimova, A. Isokov, F. Rashidova, F. Alimov, M.U. Ashurov, A.A. Raxmanov, D.U. Xashimova, X.A. Mamatkulov, M.R. Muxitdinovalar⁴

² Саттаров Т.К. Формирование профессиональных умений будущего учителя иностранного языка на практических занятиях по специальности (на материале английского языка): Автореф. дис. ... докт. пед. наук. Ташкент, 2000. – 32 с.; Jalolov J.J., Mahkamova G.T., Ashurov Sh.S.. English Language Teaching methodology. Tashkent: Fan va texnologiya, 2015. – 336 p.; Axmedova L.T. Роль и место педагогических технологий в профессиональной подготовке студентов: Монография. – Т.: Fan va Texnologiya, 2009. – 160 с.; Muradkasimova K.Sh. Ingliz tilini o‘qitishda talabalarning ko‘nikma va malakalarini baholash xususiyatlari: ped. fan. dokt. ... dis. - Toshkent, 2019. – 153 b.;

³ Соловова Е.Н. Методика обучения иностранным языкам: базовый курс лекций. Пособие для студентов пед. вузов и учителей / Соловова Е.Н. – изд. 4-е. – М.: Просвещение, 2006. – 239 с.– 67 с.; Зимняя И.А. Психология обучения иностранным языкам в школе. М., 1991. – 223 с.; Пассов Е.И. Основы коммуникативной методики обучения иноязычному общению. М.: Русский язык, 1989. – 276 с.;

⁴ Казакбаева С.И. Формирование национально-культурного уровня коммуникативной компетенции у студентов-узбеков факультетов русской филологии: Дисс. канд. пед. наук. – Т., 2000. – 231с.; Олимова Д.Ш. Олий педагогик таълим тизимида бўлажак ўқитувчиларнинг коммуникатив кўникмаларини шакллантириш: Дисс. ...пед.фанлар. номзоди.– Т., 2005. –170 с.; Рашидова Ф.М. Совершенствование концептуально-методических основ внедрения CEFR в систему непрерывного образования Узбекистана (на примере английского языка): Дисс... докт. пед. наук.– Т.: 2017. – 258 б.; Алимов Ф.Ш. Инглиз тилида ёзув

shug‘ullanishgan. S. Xyuston, D. Biber, S. Grays, M. Xalliday, V. Taubert, V. Baranova, V. Zaxarova, O.G. Gorina, Y.V. Syomich, P.A. Zolotov⁵ kabi olimlarning ilmiy ishlari zamonaviy korpus lingvistikasining fan sifatida shakllanishi masalasiga bag‘ishlangan.

Respublikamizda J. Jumaboyeva, G. Sobirova, Sh. Xamroyeva, N. Ataboyev, N. Begibayeva kabi olimlarning dissertatsiyalarida ham korpus lingvistikasi va multimedia resurslari muammosi turli aspektlarda tadqiq etilgan⁶.

Ushbu tadqiqotlarning ilmiy konsepsiyasini takrorlamagan holda masalaning hali o‘rganilmagan qirralarini kashf etish hamda amaldagi ilmiy ishning originalligini ta‘minlash maqsadida bu mavzuga doir so‘nggi yillarda olib borilgan izlanishlarga tayanildi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar va talabalar o‘rtasida ilmiy-tadqiqot, ilmiy- ijodiy ishlar” ilmiy loyahasining “Xorijiy til o‘qitish metodikasining yangi yo‘nalishlari” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog‘liq ravishda amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi talabalarning yozma kompetensiyasini takomillashtirishda COCA korpus texnologiyasini autentik (haqiqiy) material manbayi sifatida qo‘llashning ilmiy asoslangan metodikasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

korpus lingvistikasining fan sifatida rivojlanishi va o‘qitish jarayonida korpus texnologiyalarini joriy etish muammosi bo‘yicha xorijiy va mahalliy uslubiy adabiyotlarini tahlil qilish;

talabalarning yozuv kompetensiyasi bo‘yicha o‘qitish metodikasini

компетенциясини шакллантириш (нофилологик факультетлар мисолида): Дисс. пед. фан. бўйича фалсафа . докт. – Т., 2018.– 158 б. Ашууров М.У. Повышение эффективности классных и внеклассных занятий по математике с использованием компьютеров: Автореф. дис. ... канд.пед.наук. – Ташкент, 2002. – 16 с.; Рахмонов А.Б. Формирование коммуникативных навыков учеников средствами информационно-коммуникативных технологий (на примере 5-9 классов): Дис. докт.филос. по пед. наук. – Ташкент, 2019.– 277 с.;

⁵ Hunston S. Corpora in Applied Linguistics: Cambridge University Press, 2002. – 234 p.; Баранов А.Н. Компьютерная лингвистика // Введение в прикладную лингвистику: учебное пособие. – М.: Едиториал УРСС, 2003. – 320 с.; Горина О.Г. Использование технологий корпусной лингвистики для развития лексических навыков студентов-регионоведов в профессионально-ориентированном общении на английском языке: Автореф. дис. ... канд.пед.наук. – М., 2014. – 29 с.; Семич Ю.И. Методика обучения студентов направления подготовки «Журналистика» иноязычному письменному высказыванию на основе корпусных технологий: дис. канд. пед. наук. Тамбов: ТГУ имени Г.Р. Державина, 2019, 185 с.;

⁶ Сабирова Г. Умумтағлим мактаблари ўқувчиларига инглиз тили олмошларини ахборот технологиялари асосида ўргатиш методикаси: Филол. фалс. д-ри (PhD) ...дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – 41 б. URL: <http://uzswlu.uz/media/ba7be50d-84f1-c826-f935-6e7610cb6bf5.pdf>; Джумабаева Ж. Ўзбек ва инглиз тилларида лексик ҳамда стилистик градуонимия: Докторлик диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2016. – 82 б. URL: http://tashgiv.uz/wp-content/uploads/2017/01/avtoref_jumabayeva.pdf; Хамроева Ш. Ўзбек тили муаллифлик корпусини тузишнинг лингвистик асослари: Филол.б. фалс. д-ри (PhD) дисс. автореф. – Қарши, 2018. – 52 б. URL: <https://e-books.tsue.uz/pdf-ozbek-tilimualliflik-korpusini-tuzishning-lingvistik-asoslari> ; Атабоев Н.Б. Инглиз тили корпусининг функционал хусусиятлари (COCA мисолида): Филол.б. фалс. д-ри (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2020.; Begibaeva N. D. Onlayn resurslardan foydalangan holda maktab o‘qituvchilarining yozma nutq kompetensiyasini takomillashtirish (ingliz tili misolida): Ped. f.b. fals. d-ri (PhD) ... diss. avtoref. – Toshkent: 2022. – 57 b.

takomillashtirishda COCA korpus texnologiyalarining ahamiyatini o'rganish;

“O'qish va yozish amaliyoti” faniga doir o'quv dasturi asosida darslik va o'quv-qo'llanmalarni tahlil qilish;

COCA korpus texnologiyalarining didaktik xususiyatlari va yozuv kompetensiyasini takomillashtirishda o'qitish metodikasidagi vazifalarni aniqlash;

korpus texnologiyalaridan autentik materiallar manbayi sifatida foydalanish orqali o'qitishning funksional modelini yaratish va asoslash;

talabalarining yozuv kompetensiyasini takomillashtirish maqsadida korpus texnologiyalarini qo'llash bo'yicha mashqlar tizimini ishlab chiqish;

korpus texnologiyalari (COCA) yordamida talabalar yozuv kompetensiyasining (B2 darajasi) takomillashganligi yuzasidan baholash mezonini ishlab chiqish;

talabalarining yozuv kompetensiyasini takomillashtirishda korpus texnologiyalariga asoslangan o'qitish metodikasi samaradorligini aprobatsiya qilish bo'yicha pedagogik tajriba o'tkazish.

Tadqiqotning obyekti sifatida filologik oliy ta'lim muassasalari Xorijiy til va adabiyot yo'nalishidagi uchinchi bosqich talabalarining yozuv kompetensiyasini korpus texnologiyalari (COCA) yordamida takomillashtirish jarayoni belgilangan.

Tadqiqotning predmetini Xorijiy til va adabiyot yo'nalishidagi uchinchi bosqich talabalarining yozuv kompetensiyasini korpus texnologiyalari (COCA) yordamida takomillashtirish masalasi mohiyati, texnologiyalari va usullari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida nazariy tadqiqot usullari (tadqiqot mavzusi bo'yicha xorijiy hamda respublika adabiyotlarni nazariy tahlil va sintez qilish), empirik tadqiqot usullari (o'quv dasturlari, o'quv-uslubiy majmualarni tahlil qilish; anketalash, uslubiy tajriba), statistik tahlil (uslubiy tajriba natijalarini sifat va miqdoriy tahlil qilish) kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

SWOT tahlili metodi yordamida takomillashtirilgan korpus texnologiyasining ko'p tillik, kontekstuallik, dinamiklik, algoritmlik, ko'p janrlik, saralash imkoniyati va gipermatnlik kabi didaktik xususiyatlaridan talabalar yozuv kompetensiyasini takomillashtirish kontseptual asosi sifatida korpus texnologiyalarining metodik funksiyalari ishlab chiqilgan;

talabalarining yozuv kompetensiyasini takomillashtirish metodikasi COCA korpusi discriptorlari, uch bosqichli ma'lumotlarni tanlash, saralash va tahlil qilishni o'z ichiga olgan vosita va usullar integratsiyasi asosida maqsadli, nazariy, texnologik va baho-natijaviy bloklarni qamrab olgan funksional modeli ishlab chiqilgan;

korpusga asoslangan COCA texnologiyasining samaradorligi Bloom taksonomiyasining olti bosqichli kognitiv darajalari hamda talabalarining yozuv kompetensiyasini takomillashtirishga qaratilgan kirish, faollashtiruvchi, applikativ va produktiv mashqlarni integratsiya qilish orqali samaradorligi isbotlangan;

talabalarining yozuv kompetensiyasini baholash mezonini diskriptorlari yuzuv kompetensiyasi komponentlari bo'lgan lingvistik, evristik, strukturaviy va instrumental komponentlari hamda pedagogik kvalimetriyaning tarkibi o'z ichiga

olgan past, o‘rta va yuqori darajadagi ko‘rsatkichlarni vertikal ravishda integratsiya qilish asosida ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Xorijiy til va adabiyot yo‘nalishidagi uchinchi bosqich talabalarining yozma kompetensiyasini takomillashtirishga qaratilgan korpus texnologiyalari (COCA) integratsiyasi asosida Reading/writing fani bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua yaratilgan;

korpus texnologiyalari (COCA)dan autentik materiallar manbayi sifatida foydalanish asosida mashqlar tizimi ishlab chiqilgan;

xorijiy til va adabiyot yo‘nalishidagi uchinchi bosqich talabalarining yozma kompetensiyasini takomillashtirish maqsadida o‘qitish jarayonida tashxislash, tashkiliy va amaliy bosqichlardan korpus texnologiyalarini integratsiyalash algoritmi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi nazariy yondashuv va usullarni ishonchli manbalardan olinganligi, matematik-statistik tahlil usullari asosida ishlab chiqilgan o‘qitish metodikasining samaradorligi, o‘qitish amaliyotida xulosa va tavsiyalarning joriy etilganligi, olingan natijalarni vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati korpus texnologiyalarini korpusli yondashuv nuqtayi nazaridan ta’lim jarayoniga tatbiq etish va shu yo‘l bilan talabalarning kommunikativ (yozma) kompetensiyasini takomillashtirish jarayonining nazariy qonuniyatlarini aniqlash; “talabalarning yozma kompetensiyasi” tushunchasi va uning tuzilmaviy hamda mazmuniy tarkibini ilmiy ta’riflash; talabalarning yozma kompetensiyasini takomillashtirish jarayoniga korpus texnologiyalarini tizimli integratsiyalash maqsadga muvofiqligini asoslash bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan ilmiy natijalarni ta’lim jarayoniga tatbiq etish orqali talabalar yozma kompetensiyasini korpus texnologiyalari (COCA) vositasida takomillashtirish bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmualarni boyitishi va yangi fan – Korpus lingvistikasi uchun amaliy manba bo‘lib xizmat qilishi bilan izohlanadi. Bu fanning 2024-2025 o‘quv yilidan Xorijiy til va adabiyot yo‘nalishida tahsil oluvchi uchinchi bosqich talabalarining o‘quv dasturiga kiritilishi kutilayotgani ishning amaliy qiymatini oshiradi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Korpus texnologiyalari (COCA) talabalarning yozuv kompetensiyasini takomillashtirishda autentik materiallar manbayi sifatida tadqiq qilish jarayonida erishilgan ilmiy natijalar asosida:

korpus texnologiyalari (COCA)ning ko‘p tillik, kontekststuallik, dinamiklik, algoritmlilik, ko‘p janrlilik, saralash imkoniyati va gipermatnlik kabi didaktik xususiyatlari takomillashtirilgani hamda ular asosida talabalar yozuv kompetensiyasini yanada rivojlantirishning ilmiy negizi sifatida korpus texnologiyalarining funksiyalari ishlab chiqilgani va kengaytirilgani to‘g‘risidagi takliflar AQSh elchixonasi homiyligida va AQSh konsulligi tomonidan ma’ murlashtirilgan O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti hamda AQSh davlat departamenti SUZ80021GR3106-son “The English Access Microscholarship Program” tomonidan 2022-2024-yillarda amalga oshirishga mo‘ljallangan

“O‘zbekistonda oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimini jarayonlarini modernizatsiyalash va kompyuter savodxonlikni oshirish” mavzusidagi xalqaro loyihada foydalanilgan (O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2022-yil 19-dekabrda 01/754-son ma’lumotnomasi). Natijada loyiha doirasidagi dastur resurslarini boyitish orqali ishning amaliy qiymati yanada oshgan;

tillarni korpusli yondashuv negizida o‘qitishga asoslangan va tashxislash-maqсадli, nazariy, texnologik hamda baholash-natijaviy bloklardan iborat korpusli texnologiyalar (COCA) vositasida talabalar yozuv kompetensiyasini takomillashtirishning funksional modeli modernizatsiyalashganiga oid takliflardan Yevropa Ittifoqining ERASMUS+ dasturi doirasida ICM, KA-107 – International Credit Mobility between European Union and Uzbekistan HEIs, through staff and student mobility exchange projects between Uzbekistan State University of World Languages and Ruhr University Bochum (Germany) – 2020-1-DE01-KA107 005433 raqamli xalqaro loyihada foydalanilgan (O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2023-yil 5-oktyabrda 01/565-son ma’lumotnomasi). Natijada ishning qiymati xalqaro miqyosda ham dolzarflik kasb etishi o‘z isbotini topgan;

kirish, faollashtirish, aplikativ va produktiv turdagi mashqlardan iborat autentik materiallar manbayi sifatida korpus texnologiyalari (COCA) asosida talabalar yozuv kompetensiyasini takomillashtirish bo‘yicha mashqlar tizimi ishlab chiqilgani borasidagi xulosalardan O‘zbekiston Milliy universitetida 2021–2022 yillarda bajarilgan A-OT-2021-419 raqamli “Davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini oshirish kursining elektron platformasini yaratish (Pre-school PDP)” mavzusidagi innovatsion loyihada foydalanilgan (Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining 2023-yil 17-aprelda 04/11-2195-son ma’lumotnomasi). Natijada yozuv kompetensiyasini baholash borasidagi yangiliklarning ahamiyati yanada oshgan;

kontekstuallik va algoritmlik tarkibiy qismlari hamda talabalar yozuv kompetensiyasining B2 darajasini baholash yuzasidan lingvistik, evristik va tuzilmaviy bloklardan iborat instrumental blokni integratsiyalash yordamida mezonli apparat deskriptorlari modifikatsiya qilingani xususidagi ilmiy-nazariy mulohazalardan Yevropa Ittifoqining ERASMUS+ dasturi doirasida Latviyaning Rezekna texnologiyalar Akademiyasi, Angliyaning London Metropolitan universiteti bilan hamkorlikda bajarilgan “561624-EPP-1-1-UK-EPPKA2-CBHE SP-IMEP” mavzusidagi xalqaro loyihada foydalanilgan (O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2023-yil 20-sentyabrda 06/515-son ma’lumotnomasi). Natijada xalqaro kredit, shuningdek, kadrlar va talabalar almashinuvi masalasi bo‘yicha ishlab chiqilgan dastur mazmungan boyitilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 20 ta ilmiy ish, shulardan 5 ta maqola O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda e’lon qilingan, 1-ta respublika va 9-ta maqola xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va tavsiyalardan iborat bo'lib, umumiy hajmi 148 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan bo'lib, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti, predmeti aniqlangan, metodlari tavsiflangan, ishning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, olingan natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, aprotatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi hamda hajmi bo'yicha malumotlar keltirilgan.

“Talabalarning xorijiy til yozuv kompetensiyasini korpus texnologiyalar yordamida takomillashtirishning nazariy va uslubiy shartlari” nomli birinchi bobida oliy ta'lim muassasalari 3-bosqich filolog talabalarining kommunikativ (yozuv) kompetensiyasini takomillashtirish muammosi, korpus lingvistikasini fan sifatida shakllanish jarayoni va uning chet tilni o'qitishda integratsiyalashuvi hamda yozma malakani oshirish uchun DDL korpusli yondashuvining muhim xususiyatlari yoritilgan.

O'zbekistonda xorijiy tillarni o'qitish tizimiga kompetensiyali yo'naltirilgan ta'lim 2013-yilda joriy etilgan⁷. Bu yondashuvning mazmun-mohiyati talabalarda kompetensiyalar majmuyini tubdan shakllantirish va rivojlantirishga asoslanadi. Shu munosabat bilan filologiya oliy o'quv muassasalari talabalarida chet tilidan kommunikativ kompetensiya (yozuv)ni shakllantirish va takomillashtirishning ahamiyati ortib bormoqda, chunki kommunikativ kompetensiyaning istiqbollari juda yuqori hamda lingvistik va semantik tuzilmalardan tashqari, diskurs har qanday kompetensiyani tushunish uchun asosiy makon sifatida muhim o'rin tutadi. Dissertatsiyada L.F. Baxman tomonidan taklif etilgan kommunikativ kompetensiya modeliga tayanildi. Olim kommunikativ kompetensiyani “kommunikativ-lingvistik malaka” deb belgilaydi hamda *lingvistik, strategik, bilim tuzilishi va psixofizik mexanizmlar* kabi tarkibiy qismlarga ajratadi. Bunda tashkiliy va pragmatik til sohalari ajralib turadi, barcha kompetensiyalarning yig'indisi o'rganish maqsadiga erishish, ya'ni kommunikativ kompetensiyaga erishish uchun imkon beradi, deb hisoblaymiz⁸.

Kommunikativ yozuv malakaning ta'rifi va terminologiyasida kelishmovchiliklar va nomutanosibliklar mavjudligi sabab, g'oya va fikrlarni yozma shaklda shakllantirish malakasi turli mualliflar tomonidan yozish, kompozitsiya, yozma muloqot, yozma nutq deb atalgan. “*Yozma nutq*” – “*yozma ko'nikmalar asosida shakllanadigan va fikrni yozma ravishda ifodalashni, ya'ni turli uslub va janrlardagi matnlarni yaratishni ta'minlaydigan qobiliyatdir*”⁹. “Yozma nutq

⁷ O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim tizimining Davlat standarti// Xalq ta'limi. 4/2013.

⁸ Bachman, L.F. (1990). *Fundamental Considerations in Language Testing*. Oxford etc.: OUP. P. 423.

⁹ Азимов Е.Г., Щукин А.Н. *Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения)*

kompetensiyasi” – “yaxlit o‘z-o‘zini tashkil etadigan funksional tizimni tashkil etuvchi bir qator ketma-ket operatsiyalarni o‘z ichiga olgan tuzilma va tashkiliy jihatdan murakkab aqliy faoliyat”¹⁰. Shuningdek, L.V. Kaplich: “Yozma nutq kompetensiyasi tuzilishi bir hodisani – nutq aloqasi jarayonini tavsiflovchi o‘zaro bog‘liq elementlar bilan ifodalangan tizim”,¹¹ deb hisoblaydi. Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, *yozma kompetensiya – tilning lug‘aviy vositalari va grammatik qoidalarini o‘zlashtirish kabi turli ko‘nikmalar yig‘indisi; kommunikativ va autentik vaziyatlarga mos ravishda matn yaratish qobiliyati; bir nechta manbalardan olingan ma’lumotlarni baholash, tahlil qilish va sintez qilish asosida yozma bayonotning yaxlitligi hamda to‘liqligiga erishish malakasi; o‘z pozitsiyasini rivojlantirish va nuqtayi nazarni “ma‘qul” va “qarshi” bilan bahslashadigan insho yoki hisobot yozish malakasidir.*

Bugungi kunda korpus lingvistikasi tilshunoslikka nisbatan yangi yondashuv sifatida tushuniladi. U “haqiqiy hayotda” tildan foydalanishni kompyuterlar va elektron korpuslardan foydalanish orqali empirik o‘rganish bilan bog‘liq. Korpus lingvistikasi: a) foydalaniladigan til materialining o‘ziga xosligi; b) lingvistik tadqiqotlar uchun qo‘llanadigan vositalar kabi xususiyatlarga ega bo‘lib, “o‘ziga xos fan bo‘lishga da’vo qilishi” mumkin.

Agar 1960-yillarda birinchi elektron korpuslar paydo bo‘lishi bilan ulardan o‘quv va pedagogik tadqiqotlarda foydalanish asosan bilvosita bo‘lgan bo‘lsa, (Corpus-based learning – CBL), o‘qitishda korpusli yondashuvning alohida metodikasi sifatida paydo bo‘lishi (Data-driven Learning (DDL) (so‘zma-so‘z – elektron ma’lumot bilan faollashtiriladigan yoki rag‘batlantiriladigan o‘qitish) alohida va mustaqil ta’limning rivojlanishiga turtki berdi.

Mazkur tadqiqotda o‘qitishning DDL yondashuvidan foydalanilib, til o‘rgatishda DDL korpusli yondashuv til tuzilmalarining autentik foydalanishni tanlash va tahlil qilish yo‘li bilan haqiqiy tildan foydalanish tuzilmasini aniqlashga qaratilgan¹² (1-jadvalga qarang):

1-jadval

O‘qitishda CBL va DDL metodlari o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlar

Korpusli yondashuvlarning xususiyatlari	CBL	DDL
1. O‘quvchilarga autentik materialni ta’minlashi mumkin	✓	✓
2. O‘quvchilarni o‘quv jarayoniga faol jalb qilishga ko‘maklashadi	-	✓
3. Talabalarining tadqiqotchilik qobiliyatini ochib beradi, ularning kuzatish va olingan natijalarni tahlil qilish asosida til qoidalarini mustaqil ravishda o‘rganishga imkon beradi	-	✓
4. Korpus qidiruv elementida tez-tez uchraydigan leksik yoki grammatik ma’lumotlardan foydalanishda talabalarga imkon beradi	-	✓

языкам). – М.: ИКАР, 2009. – 448 С.

¹⁰ Richards Jack C., Schmidt Richard. (2002) Longman Dictionary of Language Teaching and Applied Linguistics. Pearson Education Ltd., С. 592.

¹¹ Каплич, Л. В. Начало обучения продуктивной письменной речи в лингвистическом вузе. автореф. дис. ... канд. пед. наук / Л.В. Каплич. – М., 1996. – 25 с.

¹² Sinclair, John McH. (2004 c), New Evidence, New Priorities, New Attitudes. In: Sinclair, John McH. (ed.) (2004 a), How to Use Corpora in Language Teaching. Amsterdam: John Benjamins., 271-299.

Korpusli DDL yondashuvi korpus lingvistikasi tomonidan taqdim etilgan texnologiyalar va resurslardan foydalanadi. Ularning amalga oshirilishi korpus lingvistikasi bo'yicha tadqiqot loyihalarini ishlab chiqish va tegishli texnologiyalar, vositalar va resurslarni yo'lga qo'yishga ta'sir qiladi va o'quv jarayoni uchun muhim rag'batlantiradi. Bu yerda "ta'lim texnologiyasi" "... mehnatni ilmiy tashkil etishning eng ratsional usullari majmuyi, eng kam kuch va mablag' sarflagan holda o'rganish bo'yicha qo'yilgan maqsadga eng qisqa vaqt ichida erishishni ta'minlaydi"¹³, deb qaraladi. Korpusli texnologiyalar esa "grammatik tizimlarning ehtimollik profillarini yaratish"¹⁴ uchun "muhim vosita", hisoblanadi. Ya'ni *korpusli texnologiyalar har xil turdagi matnlarni tahlil qilish, qayta ishlash, tanlab olish, tarjima qilish, differentsiyalash va turkumlashtirish vositasi sifatida o'ziga xos tipologik xususiyatiga ko'ra yagona elektron tizimga birlashtirilgan*. Ikkinchi jadvalda yozishni o'rgatishda DDL korpusli yondashuvni amalga oshirish bo'yicha misollar keltirilgan (2-jadvalga qarang):

2-jadval

DDL korpusli yondashuv asosida tadqiqotlarning asosiy xususiyatlari

Muallf	Tadqiqot fokusi	Korpus tiri	Ingliz tili ona tiliga nisbatan	Ingliz tili darajasi
Bayber, Konrad, Lich (2002)	Leksik va grammatik tuzilmalarni o'rgatish orqali	Btitanija Milliy korpusi (BNC)	L2,	B2+
Henri, Rozberi (2007)	Kollc katsiyalarga o'rganish orqali ariza xatiga o'rgatish	Maxsus yaratilgan o'qitish korpusi	Ingliz tili ikkinchi til sifatida	B2
Kotos, Link, Hoffman (2015)	Diskurs va ko'p janrli til patternlarini o'rgatish orqali yozishni rivojlantirish	O'qitish korpusi	Ingliz tili ikkinchi til sifatida	C1
Akerli (2017)	Kollokatsiyalarni o'rgatish orqali yozishni rivojlantirish	O'qitish korpusi	Ingliz tili chet til sifatida	B2

Tadqiqotimizda tahlilga tortilgan COCA (Corpus of Contemporary American English) korpusi elektron tizim hisoblanadi. U tilning lingvistik voqeliklarini o'rganish imkonini beradi hamda foydalanuvchi uchun qulay va ochiqdir. COCA korpusi va u asosida olingan malumotlar nafaqat fanni va o'quv materiallarining mazmunini ishlab chiqishga¹⁵, balki o'qitilayotganlarning yozma kompetensiyasining rivojlanishiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin, bunda ular real kommunikativ vaziyatlarda uchraydigan eng ko'p muammoli jihatlariga alohida e'tibor beradi.

Dissertatsiyaning **"Talabalarning yozuv kompetensiyasini takomillashtirishda COCA texnologiyalarining metodologik xususiyatlari"** deb nomlangan ikkinchi bobida o'rganilayotgan muammo bo'yicha o'quv dasturlari tahlili, korpusli texnologiyalar tahlili va ularning talabalar yozma kompetensiyasini takomillashtirishdagi o'rni, shuningdek, mashqlar tizimini ishlab chiqishdagi va

¹³ Азимов Е.Г., Шукин А.Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). – М.: ИКАР, 2009. – 448 С.

¹⁴ Halliday M. A. K. (1991). Corpus studies and probabilistic grammar. In K. Aijmer, & Altenberg, B. (Eds.), English corpus linguistics: Studies in honour of Jan Svartvik (pp. 30-43). London, Longman.

¹⁵ Hunston, Susan. (2002). Corpora in Applied Linguistics. Cambridge, Cambridge University Press. C. 137.

yozma kompetensiyani oshirish uchun o'quv modelini yaratishdagi korpusli texnologiyalarining didaktik xususiyatlari va uslubiy funksiyalari kabi masalalar yoritilgan.

Filologik oliy o'quv muassasalarining Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi 3-bosqich talabalari uchun o'quv dasturlari va o'quv adabiyotlarini o'rganilayotgan muammo nuqtayi nazaridan sezilarli darajada qayta ko'rib chiqish zarurati mavjud. Xususan, xorijiy til va adabiyot yo'nalishi 3-bosqich talabalari uchun O'qish va yozish amaliyoti fanidan darsliklarining maqsad va vazifalarida nomuvofiqlik uchraydi. Mashqlar mazmuni, tuzilishi va tizimi nuqtayi nazaridan talab darajasida emas. Chunki u mashqlarni ishlab chiqishda oddiydan murakkabga bosqichma-bosqich o'tish tamoyillariga amal qilinmagan. Shuningdek, hayotiy vaziyatlar asosidagi vazifalarni o'z ichiga olmaydi. Talabalarning yozma kompetensiyalarini takomillashtirish bilan bir qatorda egallagan kompetensiyalarni zamonaviy voqelikda amalga oshirishga ham imkon beradi. Ushbu muammoni hal qilishda korpusli yondashuvni joriy etish va akademik janrga tegishli til hodisalarini mustaqil o'rganish uchun COCA korpusli texnologiyalaridan foydalanish zarur. Shuningdek, talabalarga mustaqil ravishda ishlash imkonini beradigan akademik yozuvni tahrirlash bo'yicha topshiriqlar ishlab chiqish lozim. Bu nutqiy vaziyat va muayyan jamiyatda rivojlangan til shakli o'rtasidagi haqiqiy bog'liqlikni mustaqil kuzatish hamda tahlil qilishga imkon beradi¹⁶. Shu sababli, yozishni o'rgatishda korpus birligini ajratib ko'rsatish zarur, deb hisoblaymiz. Ushbu tadqiqotda COCA korpusli texnologiyalari orqali talabalarning yozma malakasini oshirish orqali korpus birligi ostida COCA korpusida aniqlangan kommunikativ ahamiyatga ega leksik va grammatik birliklarni tushunamiz va ularni shartli ravishda leksik-grammatik birikmalar (LGB) deb ataymiz. Bularga quyidagi birliklar kiradi: *kollokatsiyalar* – odatda, so'zlar orasidagi mazmun diqqatga sazovor joy sifatida aniqlanadi¹⁷; *kolligatsiyalar* – grammatik kategoriyalar va sintaktik tuzilmaning munosabati, ya'ni grammatik elementlar sinfining ma'lum bir sintaktik muhitda qo'shma ko'rinishi sifatida tavsiflanadi¹⁸; *chanklar* – odatda, qat'iy ifodada birgalikda qo'llanadigan bir nechta so'zlarni anglatadi¹⁹. Yuqoridagi barcha leksik vositalar turli xususiyatga va har xil barqarorlik darajasiga ega bo'lib, *elektron lingvistik korpus malumotlarini qayta ishlash va tahlil qilish vositalari, usullari to'plami bo'lgan korpus texnologiyalari orqali yozishni o'rgatish birliklari*²⁰ hisoblanadi. Ba'zi COCA texnologiyalari va ulardan akademik yozishni o'rgatishda foydalanish misollarini batafsil ko'rib chiqamiz (3-jadvalga qarang).

¹⁶ Bernadini S. Corpora in the classroom: An overview and some reflections on future developments // Sinclair J.McH. (ed.) How to use corpora in language teaching. — Amsterdam [u.a.]: Benjamins, 2004. — 308 p. — (Studies in Corpus Linguistics. T. 12). — ISBN 978-90-272-22831

¹⁷ Chrystal D.A. (1985). Dictionary of Linguistics and Phonetics. — 2nd ed. — Oxford., C. 55.

¹⁸ Römer U. (2005). Progressives, Patterns, Pedagogy: A Corpus-driven Approach to English Progressive Forms, Functions Contexts and Didactics. John Benjamins.

¹⁹ Zimmer B. (2010). "On Language: Chunking." The New York Times Magazine, Sep. 19, 2010.

²⁰ Золотов П. Ю. 2020. Методика формирования прагматической компетенции студентов на основе корпусных технологий: Автореф. дис. ... канд.пед.наук. — Тамбов., 2020. — 47 с.;

COCA korpus texnologiyalari²¹

Korpusli texnologiya	Deskriptor	Foydalanish misoli
<i>Konkordans yoki matndagi tayach so'z (KWIC)</i>	Vertikal o'qish yoki skanerlash orqali "so'zning eng ehtimoliy grammatik tuzilishini va uning boshqa leksik elementlar bilan tipik birikmasini" ²² yoritishga imkon beruvchi "ko'rib chiqilayotgan leksik birlik moslik chizig'ida joylashgan" matn lavhalari ²³	Talabalar tomonidan eng ko'p uchraydigan xatolardan biri bo'lgan " <i>discuss about something/somebody</i> " konkordans chizig'ini tahlil qilish bo'yicha mashq bu birikmadan foydalanishning birorta ham misoli yo'qligini ko'rsatadi
<i>Chastotali ro'yxatlar (Frequency List)</i>	Korpusda uchraydigan barcha so'zlar, so'z shakllari ro'yxati, alifbo tartibida yoki chastota tartibida berilgan har bir alohida elementning paydo bo'lish soni bilan to'ldiriladi, bu korpus qidiruviga javoban LGSning ko'p qo'llanilishini vizual ko'rish imkonini beradi	Masalan, "Fake news" uchun "qor to'pi" mashqi sizga turli janrlar va registrlarda foydalanish chastotasini tahlil qilish imkonini beradi, "so'zning jamoaviy qiyofasi"ni yaratadi, chunki mashq jarayonida so'z "o'zining nutq sheriklari bilan qor to'pi kabi o'sib chiqadi" ²⁴
<i>Kollokatsiya (Collocates)</i>	Tahlil qilingan leksik birliklarning nutq qismlari, janrlari va qo'llanish chastotasi bo'yicha birikmalarining ko'rgazmali namoyishi	"Crime" otlari bilan birlashtirilgan fe'llarni qidirish bo'yicha mashq, buning uchun qidiruv so'zi "collocates" qidirish satriga kiritiladi
<i>Solishtirish (Compare)</i>	Ikki so'zning birikmalarini solishtirish, ularning ishlatilishi, ma'nosi va janr taqsimotida qanday farq qilishini aniq ko'rsatish	Masalan, "presidential" so'zi bilan birlashtirilgan "discussion / debate" so'zining mosligini aniqlash uchun mashq. Biroq agar "presidential debate" birikmasi COCAda 2393 marta uchrasa, u holda "presidential discussion" birikmasidan foydalanish chastotasi 4 ni tashkil qiladi, bu esa bu kombinatsiya amalda qo'llanilmasligini ko'rsatadi
<i>Matni tahlil qilish (Text analysis)</i>	So'z profilini tahlil qilish va o'rganish uchun o'rta va past chastotali so'zlarni aniqlash	Matndagi asosiy so'zlarni aniqlash, shuningdek, yuqori chastotali leksik birliklarni akademik janrga tegishli past chastotali birliklar bilan almashtirish orqali matnni tahrirlash bo'yicha mashq

Har qanday texnologiya didaktik xossalar va unga bog'liq uslubiy funksiyalarga ega, korpusli texnologiyalar ham bundan mustasno emas. E.S. Polat, M.Y. Buxarkina, M.V. Moiseyevlarning fikricha, internet – texnologiyalarning didaktik xossalari "*nazariy nuqtayi nazardan ham, amaliyot nuqtayi nazaridan ham didaktika (jumladan, lingvodidaktika) uchun muhim bo'lgan, bir-biridan ajralib turuvchi aniq texnologiyalarning asosiy xususiyatlarini o'z ichiga oladi. Zamonaviy AKTning didaktik vazifalari deganda o'quv jarayonida qo'llaniladigan AKT vositalarining qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun tashqi ko'rinishlari tushuniladi*"²⁵. COCA texnologiyalarining aniqlangan didaktik xossalariga ko'ra, talabalarning yozish malakasini oshirish uchun COCA korpusli texnologiyalaridan foydalanishda yordam beradigan uslubiy funksiyalari shakllantirildi (4-jadvalga

²¹ Muallifning ishlanmasi.

²² O'Keefe, A., McCarthy, M., & Carter, R. (2007). From corpus to classroom: Language use and language teaching. Cambridge: Cambridge University Press.

²³ Gorina, O.G. (2014). Using the technology of corpus linguistics for the development of lexical skills of regional students. Cand. thes. in ped. scien. Moscow.

²⁴ Горина О.Г. Использование технологий корпусной лингвистики для развития лексических навыков студентов-регионоведов в профессионально-ориентированном общении на английском языке: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – М., 2014. – 29 с.

²⁵ Polat E.S., Buxarkina M.Yu., Moiseyeva M.V. Теория и практика дистанционного обучения : учеб.-метод. пособие. – М.: Академия, 2004.

qarang):

4-jadval

COCA texnologiyalarining didaktik xossalari va uslubiy funksiyalari²⁶

COCAning didaktik xossalari	COCA texnologiyalarining uslubiy funksiyalari
Kontekstuallik	COCA korpus texnologiyalari soʻralgan soʻzning asl matnidan maʼnosini aniqlaydi. Bundan tashqari, qidirilgan soʻzlarni matnda tahlil qilish, yozish bilan bogʻliq muammolarni hal qiladi, oʻquvchilarning yozma malakasini rivojlantiradi, chunki soʻralgan soʻz va iboralarni tahlil qilish leksik kompetensiyani shakllantiradi, natijada yozma malakani rivojlantiradi va takomillashtiradi.
Dinamiklik	COCA korpus texnologiyalaridan foydalanish haqiqiy va doimiy yangilanib turadigan materiallardan foydalanish imkoniyatini ochib beradi, bu nutqda zamonaviy soʻzlarni qoʻllashni oʻrganishga koʻmaklashadi, oʻrganilayotgan soʻzning xronologik va janr chastotasini aniqlash imkonini beradi.
Algoritmlik	COCA korpus texnologiyalari muayyan soʻzlar, morfemalar, soʻz qismlari, birikmalar, toʻplam iboralari, soʻz shakllari (lemmalar), mumkin boʻlgan sinonimlarni semantik, sintaktik va grammatik muhitda qidirishga yordam beradi. Bundan tashqari, maʼlum bir algoritim yoki belgini izlash kabi didaktik xususiyat oʻquvchilarning induktiv qobiliyatlarini rivojlantirishi va lingvistik tadqiqotlar oʻtkazish uchun manba yoki vosita boʻlib xizmat qilishi mumkin.
Koʻp janrlik	COCA korpus texnologiyalari turli janrlar bilan bogʻliq muvozanatli materiallarga ega boʻlib, bir nechta janrlar matnida soʻz va atamalarining aniq maʼnosini, ularning konnotatsiyasini, turli nutqlarda qoʻllanishini aniqlashga yordam beradi. Ushbu didaktik xususiyat talabalarning yozma malakasini rivojlantirishga yordam beradi, ijtimoiy, madaniy va kasbiy aloqa sohalarida foydalanishda leksik koʻnikmalarini shakllantiradi.
Gipermatnlilik	COCA korpus texnologiyalari til materialini toʻliqroq tahlil qilish uchun haqiqiy manbalarga ochiq kirish imkonini beradi, bu esa oʻqituvchilarga oʻquvchilarning yozma malakasini yanada rivojlantirishga qaratilgan mustaqil, avtonom taʼlim trayektoriyasi boʻyicha oʻqishni tashkil etish imkonini beradi.

COCA korpusli texnologiyalarning didaktik xossalari va ularning uslubiy funksiyalari filologik oliy taʼlim muassasalari 3-bosqich talabalarining yozma kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan COCA korpusli texnologiyalari asosida oʻqitish usullari bosqichlari va mashqlar tizimini ishlab chiqishning nazariy asosiga aylandi. Tadqiqotimizning maqsadi talabalarining yozma malakasini oshirish uchun korpusli texnologiyalaridan (COCA) foydalanish boʻlganligi sababli mashqlar tizimi Blum taksonomiyasi asosida va COCA korpusli texnologiyalarining didaktik xossalari hamda uslubiy funksiyalarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan (5- jadvalga qarang).

²⁶ Muallifning ishlanmasi.

Korpus texnologiyalar asosida mashqlar tizimi

Tizim	Blum taksonomi-yasi bo'yicha maqsadlar	Yo'riqnomalar (o'quv maqsadlari)	Mashqlar mazmuni
Kirish	Bilib olish	Aniqlash, belgilash, nomlash, muvofiqlashtirish, ajratish	Axborotni tanib olish orqali yodlash; ma'lumot va materiallarni esga olish, masalan, test topshiriqlarini bajarish, yetishmayotgan so'zlarni to'ldirish. Bular talabalarning yozma malakasini rivojlantirishga qaratilgan emas, ular asosan yozma topshiriq turlarining tuzilmalari, shuningdek, korpus va korpus texnologiyalari bilan tanishadilar.
Faollashtiruvchi	Tushinib olish	Qayta shakllantirish, tanib olish, tushuntirish, farqlash, solishtirish, farqni ko'rsatish, taqqoslash, misol keltirish	Axborotni boshqa so'zlar bilan bayon etish, o'xshashliklarni tavsiflash, ma'noni saqlab qolish bilan farqlash va <i>Kollokatsiya</i> va <i>Taqqoslash</i> kabi texnologiyalardan foydalangan holda ma'lumotlarni qiyoslash. O'z so'zlaringiz bilan misollar va tushunchalarni keltirish, ta'riflarni umumlashtirish, lekin yuqoridagi ta'rifni takrorlamaslik. Bu bosqichda talabalarning yozma kompetensiyasi shakllantirilmoqda va ushbu bosqichdagi mashqlar ham ikki yo'nalish bo'yicha bilimlarni mustahkamlashga qaratilgan: til birliklari va LGB haqidagi bilimlar hamda korpus texnologiyalaridan foydalanish haqidagi bilimlar.
Applikativ	Qo'llash	Talqin qilish, ko'rsatish, amaliyotga tatbiq qilish, g'oyalardan foydalanish, yozma ravishda ko'rsatish, tartibga solish	Muammoni hal qilish uchun ma'lumotdan foydalanish yoki qo'llash. Bu bosqichda mashqlar kiritiladi, ular davomida talaba o'qituvchi yordamisiz mustaqil ravishda notanish masalani hal qiladi. O'qituvchining roli qarorning borishi va qarorning to'g'riligini nazorat qilishdir, ya'ni o'qituvchi boshqaradi, chunki qaror qabul qilish jarayoni ba'zan yakuniy natijadan muhimroqdir. Bundan tashqari, mazkur bosqich korpus texnologiyalari talabalar tomonidan avtomatik ravishda, oldindan tayyorlanmasdan foydalanilishi bilan tavsiflanadi.
Produktiv	Tahlil qilish	Ajratish, asoslash, yashirin ma'noni aniqlash	Materialning tuzilishini aniqlash, shuningdek, yashirin ma'nolarini ochish uchun tahlil qilish. Tahlil paytida materialni chuqurroq o'rganish va o'zlashtirish sodir bo'ladi. Bundan tashqari, ushbu bosqichning mashqlarini bajarishda yangi model yoki tuzilma quriladi, o'ziga xos, asosli qarorlar qabul qilinadi. Ushbu bosqichdagi mashqlarning asosiy maqsadi talabalarning yozma malakasini oshirish, mustaqil ishlash qobiliyatini oshirishdir.

Kirish mashqlarining maqsadi o'quvchilarni o'quv materiali bilan tanishtirish, ya'ni o'quvchilar tomonidan til materiali o'zlashtiriladi. *Faollashtiruvchi* mashqlari olingan bilimlar yordamida ko'nikmalarni shakllantirish va avtomatlashtirishga qaratilgan bo'lsa, *applikativ* mashqlar yordamida o'quvchilar shakllangan ko'nikmalarni nutq faoliyatida amaliyotda qo'llaydilar²⁷. *Produktiv* mashqlar yordamida esa o'quvchilar tahlil qiladi, olingan bilimlar va shakllangan ko'nikmalar negizida o'z kontentini yaratadi. Bundan tashqari, talabalarning yozishda qiladigan xato turlari o'rtasidagi bog'liqlik va ularni COCA texnologiyalari yordamida qanchalik oson tuzatilishiga e'tibor qaratildi. Xilma-xilligi va tasnifiga asosan xatolarni ikki guruhga ajratish mumkin (6-jadvalga qarang).

